Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Tekstari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bkmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bkmurodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abdurahobovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	
Milliy qadriyatlar vositasida o'quvchilarni chet tili o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi.....	1209
Toshturdiyeva Xurshida Erkinovna, Elmurodova Dildora Erkinovna	
Talabalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishda individual yondashuvning nazariy asoslari	1212
Islomov Eldor Yusupovich	
Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual imkoniyatlarini diagnostik o'rganish va korreksiyalash metodikasini takomillashtirish	1215
Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi	
Языковые изменения в русском языке XXI века: исследование новых слов, сленга, интернет-коммуникации, влияния англицизмов и глобализации на современный русский язык	1220
Марупова Дилфуза Давроновна	

Ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.....	1226
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Bahodirova Mohinur Azamat qizi</i>	
Buxoro xonlariga pir bo'lgan Dahbediylar.....	1231
<i>Kandaxarov Anvarjon Xasanovich</i>	
Formativ baholash natijalaridan ta'lim sifatini yaxshilashda foydalanish.....	1236
<i>Mamatova Fazilat Ixtiyorovna, Jabborova Dilshoda Xolmamat qizi</i>	
Современные тенденции развития в подготовке юных волейболистов с использованием инновационных технологий.....	1239
<i>Имомов Сирожиддин Илхомович</i>	
Современное развитие гандбола, основы технико-тактической подготовки и методика обучения в кружках.....	1244
<i>Оринов Облакул Жумаевич</i>	
Теоретико-методические основы баскетбола и современные тенденции его развития.....	1248
<i>Ачилов Ойбек Хакимович</i>	
O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi: holat, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	1252
<i>Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich, Raximjonova Maxliyon Zokirjon qizi</i>	
Sun'iy intellekt asosida talabalarning dasturlash kompetensiyalarini rivojlantirish.....	1257
<i>Saidov Usmon Bahron o'g'li</i>	
Современные методы устранения заикания у подростков.....	1260
<i>Абдухалимова Муниса Абдурашид кизи</i>	
O'quvchilarda innovatsion yondashuv orqali ma'naviy-axloqiy tarbiya berishning o'ziga xos xususiyatlari.....	1264
<i>Xamidova Shaxnoza Nuraliyevna</i>	
Iqtidorli futbolchilarni tanlab olishning nazariy asoslari.....	1268
<i>Salayev Taxirbek Kamiljanovich, Atajanov Adilbek Yuldashevich</i>	
Sun'iy intellektning talabalarda analitik fikrlashga ta'siri.....	1274
<i>Abduhakimova Muslima Bahodir qizi</i>	
Raqamli interpretatsiya: vizual tahlil kompetensiyasini rivojlantirishda immersiv texnologiya va kognitiv yuklanishni optimallashtirish.....	1277
<i>Anvarxo'jayeva Dilinur Otabek qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektidan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish.....	1282
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
Ekologik turizmning tabiatga ma'naviy-estetik munosabatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	1286
<i>Aymatov A. Q., Turayeva Dildora Shuhratovna</i>	
O'quvchilarda milliy tuyg'ularni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	1289
<i>Begmatova Nasiba Safarbayevna</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni korreksiyalashning pedagogik texnologiyasi.....	1293
<i>Boxodirova Gulasalxon Ibroximovna</i>	
Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida lotin va yunon terminlarining o'rni.....	1296
<i>Burxonova Guyaxon Gulomovna</i>	
Ta'lim jarayonlarida sinergetik kompetensiyalash orqali integrativ yondashuvni amalga oshirish.....	1300
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i>	
Montessori metodikasining tarixi, tamoyillari va ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishdagi o'ziga xos usullari.....	1304
<i>Jo'raqulova Gulruh Murot qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish holati va muammolari.....	1307
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Methodology for the Integrative Development of Students' Educational and Creative Activities in Teaching Fine Arts.....	1312
<i>Kurbanova Shohsanam Bakhodirjon kizi</i>	
Kurash sport turining jismoniy tarbiya tizimida tutgan o'rni va uning rivojlanish omillari.....	1315
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Akbarova Nasibaxon Abdumalik qizi</i>	
Kurash sport turining texnik-taktik rivojlanishi va uning jismoniy tarbiyadagi pedagogik ahamiyati.....	1319
<i>Mamadova Feruzaxon Mirzaaxmad qizi, Eminjonova Zahro Dilmurodjon qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning intellektual qobiliyatini falsafiy bilimlar asosida rivojlantirish shakllari.....	1323
<i>Mamatqulova Shaxnoza O'ktam qizi</i>	



Using Debate, Role-Play, and Drama as Tools for Developing Oral Skills in English	1326
Menglibekov Reynazar Mukhammetkarim-uli	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida supervayzerlik qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik determinantlari	1329
Mirzayeva Muhayyo Ruziyevna	
Methodology for Developing Patriotic Education in Students Through Ideas of National Heroism	1334
Nomanova Ma'rifat Abdillayevna	
Shaxsda kasbiy tafakkur namoyon bo'lishining psixologik mexanizmlari	1337
Olimova Fotima Botirovna	
Interaktiv ta'lim muhitida talabalarning badiiy-kompozitsion didini shakllantirish pedagogik mexanizmlari (rangtasvir fani misolida)	1341
Omonqulova Dildora Xusniddin qizi	
Triz va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	1348
Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna	
O'quvchilarni o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish	1351
Qodirqulov Nodirbek Hamroqul o'g'li	
Bo'lajak muhandislarning loyihalash-konstruktorlik ko'nikmasini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari (muhandislik ta'lim yo'nalishlari misolida)	1355
Salomov Ilhom Salimovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini PIRLS tizimi asosida baholashga o'rgatish	1359
Samidjonova Muxabbat Xoliqjonovna	
"Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni integrativ o'qitishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	1362
Sobirova Mashxura Ubaydullayevna	
Sun'iy intellekt va simulyatsion o'yinlardan foydalanib iqtisodiy tafakkurni shakllantirish metodikasi	1365
Sodiqova Nigora Turayevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida virtual texnologiyalar vositasida axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi	1368
Suvonqulova Aziza Abdurazzoq qizi	
Rahbarlarning psixologik farovonligi: oila-kasb muvozanati, oilaviy munosabat va kasbiy qoniqishning o'zaro ta'sir mexanizmlari	1371
Teshayev Sobit Sodik o'g'li	
Tibbiy ta'limda refleksiv ko'nikmalar: O'zbekiston va dunyo tajribasi	1374
Toshmatova Moxizatxon Inomidin qizi	
Boshlang'ich tayyorganlik bosqichidagi yosh voleybolchilarning mashg'ulot jarayonini texnik va taktik nazorat qilish metodikasi	1377
Xakimov Saydullo Tulanboyevich	
Kadrlarni boshqarishda strategik va tezkor qarorlar uyg'unligini ta'minlashning tashkiliy-boshqaruv asoslari	1380
D. A. Xodjimatoeva	
Jismoniy imkoniyatlari cheklangan yoshlar uchun sport va jismoniy faollikning ahamiyati	1385
Zafar Xudaykulov	
Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish	1388
Yusupova Munisa	
Texnologik ta'lim jarayonida ixtirochilik va loyihalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1391
Zokirova Nargiza Akbarjonovna	
Til kompetentligining kognitiv tilshunoslik bilan aloqasi boshlang'ich sinflar misolida	1395
Zokirova Sohiba Muhtoralievna, Madazimova Muxlisa Abdurashid qizi	
Структура и основные характеристики креативности личности студентов педагогических вузов	1398
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	



PEDAGOGIK JARAYON SUBYEKTLARINING INTELLEKTUAL IMKONIYATLARINI DIAGNOSTIK O'RGANISH VA KORREKSIYALASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sattorova Malikaxon Abdug'affor qizi
Qarshi xalqaro universiteti o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-5581-0665

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagogik jarayon ishtirokchilarining intellektual malakalarini diagnostik o'rganish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda intellektual malaka tushunchasining mazmuni, uning tarkibiy jihatlari hamda pedagog va o'quvchilarda ushbu malakani aniqlash imkonini beruvchi diagnostik mezonlar tahlil qilinadi. Mavjud ilmiy manbalar asosida intellektual rivojlanishni baholash usullari solishtirilib, ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiluvchi xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayon, intellektual malaka, diagnostika, kognitiv rivojlanish, baholash mezonlari, o'qituvchi, o'quvchi.

Abstract: This article examines the diagnostic study of the intellectual competencies of participants in the pedagogical process. It explores the concept of intellectual competence, its structural components, and the evaluative criteria that help determine the level of intellectual development of teachers and learners. Based on existing scientific sources, various diagnostic approaches to assessing intellectual abilities are compared, and conclusions aimed at improving the quality of the educational process are presented.

Key words: pedagogical process, intellectual competence, diagnostics, cognitive development, assessment criteria, teacher, learner.

Аннотация: В статье рассматривается проблема диагностики интеллектуальных навыков субъектов педагогического процесса. Анализируются содержание понятия "интеллектуальная компетенция", её структурные элементы, а также критерии, позволяющие определить уровень развития интеллектуальных способностей педагогов и учащихся. На основе изученных научных источников сопоставляются методы оценки интеллектуального развития и формулируются выводы, направленные на повышение качества образовательного процесса.

Ключевые слова: педагогический процесс, интеллектуальная компетенция, диагностика, когнитивное развитие, критерии оценивания, педагог, учащийся.

KIRISH

Zamonaviy O'zbekiston ta'lim tizimi jadal rivojlanmoqda, bu esa pedagogik jarayonning har bir ishtirokchisining intellektual malakasini rivojlantirish va baholashni dolzarb vazifaga aylantiradi. Ta'lim sifati nafaqat bilim yetkazish bilan, balki o'qituvchi va o'quvchilarning tafakkur, tahlil, kreativ va kognitiv salohiyatini oshirish bilan bevosita bog'liqdir. Shu sababli pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini tizimli diagnostika qilish bugungi kunda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Yurtimizda ta'lim sohasini rivojlantirishda pedagog va o'quvchilarning intellektual malakasiga alohida urg'u beriladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli¹ Farmonida deb ta'lim sohasini yangi bosqichga olib chiqish kerakligi haqida nutq so'zladilar.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5924-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4711327>

Shuningdek, 2021–yil 23–avgustda Xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidladilar: “Har bir o'quvchining intellektual imkoniyatini aniqlash va unga mos ta'lim berish – bizning eng asosiy vazifamiz bo'lishi shart.”^[2]

Intellektual malaka nafaqat o'quvchining bilim darajasi, balki uning tafakkur, tahlil va ijodiy qobiliyatlarini o'lchash imkonini beruvchi ko'rsatkichdir. Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va o'qituvchining metodik faoliyatini shakllantirishda diagnostika markaziy rol o'ynaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'lim va pedagoglarning maqomi belgilangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2020–yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son² Qonun pedagogik jarayonning sifatini oshirish va diagnostik vositalarni joriy etishni mustahkamladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli³ Farmonida ta'lim sifati, pedagoglarning intellektual va professional salohiyati, zamonaviy diagnostik yondashuvlarni qo'llash vazifalari aniq ko'rsatib o'tilgan.

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini o'rganish jarayoni bir necha asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi: o'quvchi va o'qituvchining tafakkur bosqichlarini aniqlash, muammolarni hal qilish qobiliyati, kognitiv va kreativ salohiyatni baholash. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bu borada metodologik asos sifatida xizmat qiladi, chunki u bolalarning tafakkurining bosqichma–bosqich rivojlanishini va har bir bosqichga xos intellektual strukturalarni aniqlash imkonini beradi. Shu tariqa, pedagogik diagnostika nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, diagnostika jarayoni pedagogik jarayonning individual xususiyatlarini inobatga oladi. Har bir o'quvchi va pedagogning intellektual salohiyatini aniqlash orqali ta'lim jarayoni shaxsga moslashadi, samaradorlik oshadi va ta'lim sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Pedagogik diagnostika nafaqat o'qituvchi va o'quvchining intellektual malakasini aniqlash, balki ularning o'zaro hamkorlik strategiyasini shakllantirishga ham yordam beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakalarini o'rganish masalasi nafaqat O'zbekiston, balki jahon pedagogik tadqiqotlarida ham muhim mavzu sifatida ko'riladi. Intellektual malaka tushunchasi o'quvchi va o'qituvchining kognitiv, kreativ va metakognitiv qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Shu jihatdan, pedagogik jarayon subyektlarining malakasini aniqlash va baholash zamonaviy ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. B. Umirbekova pedagogik adabiyotlarni tahlil qilgan tadqiqotida kognitiv kompetentlik tushunchasining ilmiy–nazariy asoslarini ochib beradi. Muallifning fikricha, pedagog va o'quvchi o'rtasidagi samarali interaktiv jarayon faqat ularning intellektual malakasi hisobga olinganda yanada samarali bo'ladi^[3]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik diagnostika o'quvchilarning tafakkur va tahlil qobiliyatini, shuningdek, o'qituvchining metodik kompetentsiyasini aniqlash imkonini beradi.

M. Jamatova esa o'quvchilarning intellektual qobiliyatini shakllantirishning psixologik va pedagogik jihatlari tahlil qilgan. U intellektual malakani faqat bilim ko'rsatkichlari bilan emas, balki tafakkur darajasi, muammoni hal qilish qobiliyati va ijodiy yondashuvlar orqali baholash kerakligini ta'kidlaydi^[4]. Shu bilan birga, muallif diagnostik yondashuvning individual va sinf kontekstida amalga oshirilishi pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkinligini bildiradi.

Rus tilidagi manbalar ham pedagogik kompetentsiya va intellektual malaka diagnostikasi bo'yicha muhim ma'lumot beradi. Masalan, Yegorchenkova va Korobova pedagogik kompetentsiyaning tarkibini tahlil qiladi. Ularning fikricha, pedagogning intellektual kompetentsiyasi – bu o'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini kuza-tish, shuningdek, ularga individual yondashuvni ta'minlash qobiliyatidir^[5]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik diagnostika nafaqat o'quvchining malakasini aniqlash, balki o'qituvchining o'z professional darajasini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, “Современные компетенции педагога” maqolasi pedagog kompetensiyalarining zamonaviy talablarga mos ravishda shakllanishini tahlil qiladi. Mualliflar pedagogik kompetentsiyani uch asosiy komponentga ajratadi: shaxsiy, ijtimoiy va intellektual. Aynan intellektual komponent pedagogning kognitiv va metodik faoliyatini aniqlashda markaziy rol o'ynaydi.

O. Qodirov esa kommunikativ va metakognitiv kompetentsiyani shakllantirishning pedagogik–psixologik xususiyatlarini o'rganib, pedagogik jarayonda intellektual va ijtimoiy malakalarni birgalikda rivojlantirishning samarali usullarini taklif qiladi^[6]. Bu manba pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini baholashda kengroq kontekstni hisobga olishning zarurligini ko'rsatadi.

2 O'zbekiston Respublikasining 2020–yil 23-sentabrdagi “Ta'lim to'g'risida”gi O'RQ-637-son Qonun: <https://lex.uz/docs/-5013007>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-sonli Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



Yuqoridagi adabiyotlarni tahlil qilganda, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasi – bu o'quvchining kognitiv, metakognitiv va kreativ qobiliyatlarini o'z ichiga oladi.
2. Intellektual malakani baholash faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy diagnostik vositalar orqali amalga oshirilishi lozim.
3. Pedagogning intellektual kompetentsiyasi o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda markaziy rol o'ynaydi.
4. Zamonaviy pedagogik kompetentsiya nafaqat shaxsiy va ijtimoiy, balki intellektual komponentni ham o'z ichiga oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini o'rganish zamonaviy ta'lim tizimida muhim masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – pedagog va o'quvchilarni intellektual salohiyat jihatidan tizimli baholash, ularni diagnostika qilish mezonlarini aniqlash va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot metodologiyasi ilmiy va amaliy jihatdan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:

1. **Nazariy yondashuvlar.** Nazariy yondashuvlar tadqiqotning ilmiy asosini tashkil qiladi. Bu yondashuvlar orqali intellektual malaka tushunchasi aniqlanadi, uning tarkibi va pedagogik jarayonda roli tizimlashtiriladi.
Adabiyotlarni tahlil qilish: pedagogik va psixologik adabiyotlar, davlat dasturlari va ta'lim sohasidagi normativ hujjatlar tahlil qilinadi. Shu orqali intellektual malaka va uning komponentlari (kognitiv, metakognitiv, kreativ, kommunikativ) aniqlanadi.
Klassifikatsiya va sistematzatsiya: intellektual malakaning tarkibiy qismlari ajratiladi va pedagogik jarayonda ularni baholash mezonlari aniqlanadi.
Taqqoslash (komparativ tahlil): turli ta'lim tizimlaridagi diagnostik metodlar va intellektual malakani baholash usullari solishtiriladi. Bu yondashuv orqali tadqiqotda milliy va xalqaro tajribalarni o'zlashtirish imkoniyati yaratiladi.
 Nazariy yondashuvlar tadqiqotning asosiy ilmiy bazasini ta'minlab, empirik metodlar uchun yo'l ko'rsatadi.
2. **Empirik yondashuvlar.** Empirik yondashuvlar real sharoitda intellektual malakani aniqlash imkonini beradi. Ular tadqiqotning amaliy qismini tashkil etadi.
Test metodlari: o'quvchilar va pedagoglarning kognitiv qobiliyati, kreativ tafakkuri va muammoni hal qilish ko'nikmalarini baholash uchun standartlashtirilgan testlar qo'llaniladi. Testlar yordamida intellektual malaka darajasi miqdoriy jihatdan aniqlanadi va taqqoslanadi.
Anketa va so'rovnomalar: pedagog va o'quvchilarning malaka va kompetentsiyasi haqida ma'lumot olish uchun maxsus diagnostik anketalar ishlab chiqiladi. Bu metod pedagogik jarayondagi malaka komponentlarini baholashda samarali vosita hisoblanadi.
Kuzatuv: pedagogik jarayonning real faoliyati, o'quvchilarning darsdagi tafakkur qobiliyati va pedagoglarning metodik yondashuvi kuzatiladi. Kuzatuv metodlari intellektual malakani kontekstual tahlil qilish imkonini beradi.
3. **Sifat yondashuvlar.** Sifat yondashuvlar orqali intellektual malaka va pedagogik kompetentsiyaning sifat jihatlari baholanadi.
Intervyu va suhbatlar: pedagoglar bilan individual yoki guruh suhbatlari o'tkazilib, ularning metodik yondashuvi va intellektual kompetentsiyasi tahlil qilinadi. Intervyu yordamida o'quvchilarning malaka darajasi va pedagogik jarayon samaradorligi haqida chuqur ma'lumot olish mumkin.
Kasbiy faoliyatni tahlil qilish: pedagoglarning amaliy faoliyati, dars rejalari va o'quvchilarning ish natijalari sifat jihatdan baholanadi. Bu metod orqali intellektual malaka va pedagogik kompetentsiyaning amaliy ko'rsatkichlari aniqlanadi.
4. **Ma'lumotlar tahlili metodlari.** Tadqiqot natijalari quyidagi yo'llar bilan tahlil qilinadi:
Sifat tahlil: kuzatuv, intervyu va hujjatlar asosida pedagog va o'quvchilarning intellektual malakasi sifat jihatdan umumlashtiriladi va xulosa chiqariladi.
Miqdoriy tahlil: test va anketalar natijalari statistik usullar yordamida tahlil qilinadi. O'rta qiymat, dispersiya, korrelyatsiya va diagrammalar yordamida intellektual malaka darajasi miqdoriy jihatdan aniqlanadi.

Nazariy va amaliy uyg'unlik

Tadqiqot metodologiyasining eng muhim jihati shundaki, u nazariy asoslarni empirik kuzatuv va tahlil bilan uyg'unlashtiradi. Nazariy yondashuvlar orqali intellektual malaka tushunchasi va diagnostika mezonlari aniqlanadi, empirik metodlar orqali ularni o'lchash va baholash amalga oshiriladi. Sifat va miqdoriy tahlillar esa tadqiqot natijalarini ilmiy asosda tasdiqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot metodologiyasi pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini baholash, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirish va kelgusidagi tavsiyalarni ishlab chiqishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakalarini diagnostik o'rganish jarayonida qo'llangan metodlar natijalari ularning kognitiv faolligi, bilish jarayonlari rivojlanganlik darajasi, pedagogik vaziyatlarni idrok etish qobiliyati va muammoli vaziyatlarga munosabatidagi individual xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi. Psixodiagnostik jarayon davomida Piagetning intellektual rivojlanish nazariyasida bayon etilgan "mantiqiy operatsiyalar", "kognitiv moslashuv", "tenglashtirish" kabi tushunchalar metodik tahlillar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Natijalarda ayniqsa, subyektlarning vaziyatni tahlil qilish va muammoni mantiqan yecha olish qobiliyatlari ularning tajribasi, kasbiy yoshi, intellektual faollik darajasi va reflektiv fikrlash ko'nikmalariga bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Tajriba davomida pedagogik jarayon subyektlarining fikrlash jarayoni ko'proq amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib shakllanishi kuzatildi. Analitik fikrlashga ega bo'lgan subyektlar muammoni tezroq aniqlab, mavjud vaziyatni tahlil qilgan holda maqbul yechim topa oldi. Mantiqiy fikrlash darajasi yetarlicha shakllanmagan subyektlarda esa qaror qabul qilishda ikkilanib qolish, faktlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda qiyinchiliklar kuzatildi. Bu holat Piagetning intellektual rivojlanish haqidagi nazariyasida qayd etilgan "mantiqiy strukturalarning shakllanishi faol tajriba orqali boyiydi" degan fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Pedagogik jarayon subyektlarida verbal intellektni baholash natijalari ularning kasbiy muloqot madaniyati, o'z fikrini aniq ifodalash darajasi hamda abstrakt tushunchalarni qayta ishlab chiqish qobiliyatiga bog'liqligini ko'rsatdi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, fikrlashning verbal shakli rivojlangan subyektlar pedagogik vaziyatda tez moslasha oladi, o'z bilim bazasidan samarali foydalanadi va didaktik vazifalarni tizimli hal eta oladi. Aksincha, verbal fikrlash past bo'lganlarda fikrning to'liq ifodalanmasligi, ayrim tushunchalarning noto'g'ri talqin qilinishi, muloqotda sustlik kuzatiladi.

Metodik topshiriqlarning bajarilish jarayonida ham sezilarli farqlar namoyon bo'ldi. Vizual-mantiqiy fikrlashni talab qiladigan topshiriqlarda ba'zi subyektlar yuqori natijaga erishgan bo'lsa, abstrakt mantiqni talab etuvchi topshiriqlarda qiyinchiliklar aniqlandi. Bu esa pedagoglarning intellektual malakalarini o'rganishda bir yo'nalishli testlar emas, balki ko'p komponentli diagnostika tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalarida shuni aytish mumkinki, pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakalari turlicha darajada shakllangan bo'lib, ularning professional faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Diagnostika jarayonida aniqlangan intellektual ehtiyojlar, kamchiliklar va rivojlantirish imkoniyatlari kelgusida metodik qo'llanmalar, kasbiy malaka oshirish dasturlari, tarbiyachilar va pedagoglar uchun mo'ljallangan intellektual treninglar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Natijalar shuni ko'rsatdiki, intellektual malakalarni muntazam ravishda rivojlantirish, diagnostika asosida individual yondashuvni shakllantirish hamda subyektlarning bilish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash orqali pedagogik jarayon samaradorligini yanada oshirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakalarini diagnostik o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bilish jarayonlari rivojlanganlik darajasi, mantiqiy operatsiyalar tizimining shakllanganligi, reflektiv fikrlash ko'nikmalari va kasbiy vaziyatlarga moslashuv qobiliyati pedagog faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tahlil jarayonida aniqlangan holatlar Piagetning kognitiv rivojlanish haqidagi ilmiy qarashlarini tasdiqlab, intellektual kompetensiya faol tajriba, muntazam mashq, muammoli vaziyatlar bilan to'qnashuv va bilishga doir tashabbus orqali shakllanishini yaqqol ko'rsatdi. Shuningdek, diagnostika jarayoni turli yo'nalishdagi metodlarning qo'llanishi pedagoglarning fikrlash uslubi, muammoni hal qilish tezligi, mantiqiy xulosalar chiqarish darajasi va analitik fikrlash salohiyati individual tarzda farqlanishini ochib berdi. Olingan natijalar shuni anglatadiki, pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini o'rganish nafaqat ularning kasbiy sifatlarini baholashda, balki ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Diagnostika asosida pedagoglarning intellektual portretini shakllantirish, individual kamchiliklarni aniqlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yordam tizimini ishlab chiqish zarurligi ayon bo'ldi. Shu bilan birga, diagnostika natijalari ko'rsatadiki, intellektual ko'nikmalarni muntazam rivojlantirish bo'yicha tizimli



faoliyat olib borilmagan holatlarda pedagogik qarorlar qabul qilish jarayoni sekinlashadi, noan'anaviy vaziyatlarga moslashuv qiyinlashadi va kasbiy kreativlik darajasi pasayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, pedagogik jarayon subyektlarining intellektual malakasini oshirish va uni tizimli rivojlantirishga doir quyidagi takliflar ilgari suriladi. Avvalo, intellektual diagnostika jarayonini ta'lim muassasalarida muntazam yo'lga qo'yish, uni an'anaviy ravishda yil davomida kamida ikki marotaba amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda diagnostika metodlari majmuasi verbal, vizual, abstrakt va mantiqiy fikrlashni qamrab olishi kerak. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy faoliyatida intellektual treninglar, kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan seminarlar, analitik fikrlashni kuchaytiruvchi mashg'ulotlar va psixologik konsultatsiyalarni tashkil etish ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim muassasalarida intellektual salohiyatni rivojlantiruvchi muhitni shakllantirish, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlarni keng qo'llash, pedagoglarga muammoli vaziyatlar yechimiga doir amaliy topshiriqlar, keys–stadi metodlari va reflektiv tahlil mashg'ulotlari berilishi kerak. Intellektual malakalarni baholash natijalariga asoslangan individual rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, pedagogning real ehtiyojiga mos metodik yordam ko'rsatish ta'lim sifatini izchil yaxshilashga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, intellektual malakalarni diagnostika qilish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, uning natijalaridan to'g'ri foydalanish pedagoglarning kasbiy yetuklik darajasini oshirish, ta'lim mazmunini yangilash va pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, intellektual salohiyati rivojlangan pedagoglar ta'lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishadi, o'quv jarayonini boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalana oladi va ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev. Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Toshkent, 24.01.2020.
2. Sh. M. Mirziyoyev. Xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan uchrashuv nutqi. Toshkent, 23.08.2021.
3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020–yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–5712–son Farmoni "Ta'lim sohasini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida", 2019–yil.
5. Umirbekova B. A. Kognitiv kompetentlikning ilmiy–nazariy asoslari va pedagogik jarayonda roli. Toshkent: Pedagogika jurnali, 2021.
6. Jamatova M. S. O'quvchilar intellektual qobiliyatini shakllantirish muammosi. Toshkent: Pedagogika va Psixologiya jurnali, 2018.
7. Yegorchenkova N. B., Korobova O. V. Педагогическая компетентность в системе электронного высшего образования. Moscow: Science Journal, 2023.
8. Современные компетенции педагога. Science Education Journal, 2023.
9. Qodirov O. O. Kommunikativ kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik–psixologik xususiyatlari. Toshkent: Pedagog.uz, 2024.
10. Piaget J. Психология интеллекта. Москва: Progress, 1994.
11. Qodirov M., Yo'ldosheva G. Pedagogika asoslari. Toshkent: Fan, 2010.
12. Hoshimov K., Xolmatov M. Pedagogik diagnostika. Toshkent: O'zbekiston, 2015.
13. To'raqulov A. Pedagogik kompetensiya va innovatsiyalar. Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
14. Nazarova G. B. Pedagogik psixologiya. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.